SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AKADEMIK SPEAKING KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA

Narmurodova Dilfuza Abdixoliq qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktaranti

dilfuzaqurbonova91@gmail.com (tel: 94-466-00-87)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Termiz davlat universiteti misolida sun'iy intellekt texnologiyalarining akademik speaking ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.Tadqiqot davomida ChatGPT, text-to-speech dasturlari va pronunciation feedback tizimlaridan foydalanilgan. AI vositalarining talaffuz va nutq ravonligini yaxshilash, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, academic vocabulary'dan foydalanish va speaking strategiyalarini shakllantirishdagi ayrim qiyinchiliklarga ham e'tibor qaratildi. Mazkur yondashuv sun'iy intellekt texnologiyalarini speaking darslariga integratsiya qilish EFL talabalarining akademik nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vositalardan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: EFL talabalari, akademik speaking ko'nikmalari, sun'iy intellekt yordamidagi ta'lim, ingliz tilida nutq loyihasi, raqamli feedback, ChatGPT.

ENHANCING ACADEMIC SPEAKING SKILLS THROUGH AI: THE CASE OF TERMEZ STATE UNIVERSITY

Annotation: This article examines the role of artificial intelligence technologies in developing academic speaking skills through the example of

Termez State University. During the study, ChatGPT, text-to-speech programs, and pronunciation feedback systems were used. The study explores the importance of AI tools in improving pronunciation and speech fluency, increasing students' self-confidence, and developing independent learning skills. In addition, attention is given to certain difficulties related to the use of academic vocabulary and the development of speaking strategies. The study shows that integrating artificial intelligence technologies into speaking classes can be an effective way to improve the academic speaking skills of EFL students.

Keywords: EFL Students; Academic Speaking Skills; AI-Assisted Learning; English Speech Project; Digital Feedback; Learner Confidence, ChatGPT.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АКАДЕМИЧЕСКОЙ РЕЧИ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: НА ПРИМЕРЕ ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация: В данной статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в развитии навыков академической речи на примере Термезского государственного университета. В ходе исследования использовались ChatGPT, программы преобразования текста в речь (text-to-speech) и системы обратной связи по произношению. Исследование раскрывает значение AI-инструментов в улучшении произношения и беглости речи, повышении уверенности студентов, а также в развитии навыков самостоятельного обучения. Кроме того, внимание уделяется некоторым трудностям, связанным с использованием академической лексики и формированием стратегий устной речи. Результаты исследования показывают, что интеграция технологий искусственного интеллекта в

занятия по speaking может стать эффективным способом развития навыков академической речи у студентов EFL.

Ключевые слова: Студенты EFL, навыки академической речи, обучение с использованием искусственного интеллекта, проект по английской устной речи, цифровая обратная связь, уверенность обучающихся, ChatGPT.

KIRISH. Akademik speaking ko'nikmalari ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan EFL talabalari uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq speaking darslarida barcha talabalarga individual yondashuv va muntazam feedback berish har doim ham oson emas. Natijada talabalar talaffuz, nutq ravonligi hamda omma oldida gapirishdagi ishonchsizlik bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari speaking ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, ChatGPT, text-to-speech dasturlari va pronunciation feedback tizimlari talabalarga mustaqil mashq qilish hamda tezkor feedback olish imkonini bermoqda. Ushbu maqolada Termiz davlat universiteti misolida AI vositalarining akademik speaking ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Akademik speaking ko'nikmalarini rivojlantirish chet tilini o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Speaking jarayonida muntazam mashq va tezkor feedback nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Krashen "affective filter" nazariyasida psixologik to'siqlar kamayganda til o'zlashtirish samaradorligi oshishini ta'kidlagan[1]. Shu jihatdan AI vositalari talabalarga erkin va bosimsiz mashq muhiti yaratadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda AI texnologiyalarining talaffuz va nutq ravonligini rivojlantirishdagi ahamiyati ham qayd etilgan. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko'ra, texnologiyalar o'quvchining mustaqil rivojlanishiga yordam beradi[2]. Tadqiqot davomida Termiz davlat universiteti talabalari orasida ChatGPT, text-to-speech va pronunciation feedback tizimlarining akademik speaking ko'nikmalariga ta'siri o'rganildi. Jarayonda kuzatish, suhbat va speaking topshiriqlarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish EFL talabalarning akademik speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ChatGPT, text-to-speech dasturlari va pronunciation feedback tizimlari talaffuz aniqligi, nutq ravonligi hamda talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam berdi. Talabalar AI vositalari orqali o'z xatolarini mustaqil aniqlash, takroriy mashq qilish va speaking jarayonida erkinroq fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadqiqot davomida ayrim talabalar akademik so'z boyligidan tabiiy foydalanish va nutqni yodlashsiz erkin shaklda ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelgani kuzatildi. Umuman olganda, AI texnologiyalarini speaking darslariga integratsiya qilish talabalarning akademik nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi.



1-rasmda AI vositalarining talaffuz, nutq ravonligi, o'ziga ishonch va akademik so'z boyligini rivojlantirishdagi ijobiy ta'siri aks ettirilgan.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt vositalari akademik speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. AI texnologiyalari talaffuz, nutq ravonligi va talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam berdi. Shu bilan birga, akademik so'z boyligidan foydalanishda ayrim qiyinchiliklar saqlanib qolgani aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini speaking darslariga integratsiya qilish EFL talabalarning akademik speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Xususan, ChatGPT, text-to-speech va pronunciation feedback tizimlari talaffuz, nutq ravonligi hamda talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam berdi. Shuningdek, AI vositalari mustaqil ishlash va o'z-o'zini nazorat qilish

ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, akademik so'z boyligidan foydalanish va fikrni erkin ifodalashda ayrim qiyinchiliklar saqlanib qoldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – B. 30–32
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – B. 84–91.
3. OpenAI ChatGPT: Optimizing Language Models for Dialogue. – 2023. – Available at: https://openai.com
4. Narmurodova D.A. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda AI tutor (raqamli o'qituvchi)lardan foydalanish samaradorligi // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – 2026. – №4. – B. 156.
5. Narmurodova D.A. Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda Sun'iy intellektning qo'llanishi // "Ilm-fan va texnologiyalar" ilmiy-metodik jurnali. – 2026. – №3(1). – B. 113.